



## RARE MEDICINAL PLANTS GROWING IN THE TERRITORY OF KARAKALPAKSTAN

**Yuldasheva Lobarxon Mominjan qizi**

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

3rd year biology student

[lobarxon2505@icloud.com](mailto:lobarxon2505@icloud.com)

**Annotacion:** Today, people pay special attention to their health, and their awareness of the secrets of health increases. In our country, great importance is attached to the development of medicinal and spice plants, especially to the effective and productive use of natural resources. This article provides information about rare medicinal plants found in Karakalpakstan, their number, medicinal properties, their use in medicine, and conservation measures.

**Key words:** Rare plants, ephedra, ferula, leaf, flower, fruit, raw material, tincture, skin burn, gastrointestinal diseases, vitamin deficiency, vitamins, alkaloids.

## QORAQALPOG'ISTON HUDUDIDA O'SUVCHI KAMYOV DORIVOR

### O'SIMLIKLAR

**Yuldasheva Lobarxon Mominjan qizi**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Biologiya yo'naliشining 3-kurs talabasi

[lobarxon2505@icloud.com](mailto:lobarxon2505@icloud.com)

**Anotatsiya:** Hozirgi kunda insonlar sog'lig'iga alohida e'tibor berishi, salomatlik sirlaridan xabardorligi ortishi. Mamlakatimizda dorivor va ziravor o'simliklarni rivojlantirishga, xususan tabiiy boyliklardan samarali va unumli foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Ushbu maqolada Qoraqalpog'istonda uchraydigon kamyob dorivor o'simliklar, ularning soni, dorivorlik xususiyati, ularning tibbiyotda qo'llanilishi va saqlab qolish chora tadbirlari haqida malumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Kamyob o‘simliklar, ephedra, ferula, barg, gul, meva, xomashyo, damlama, teri kuyishi, oshqozon-ichak kasaliklari, vitamin yetishmovchiligi, vitaminlar, alkaloidlar.

Qoraqalpog’iston Respublikasi hududida hozir 1000 ga yaqin yovvoyi o‘simliklar turlari aniqlangan. Ular orasida jiddiy, uhofazaga muhtoj, kamyob, endem va relikt turlar ham bor.

Hozirgi kunda atrof muhitni, o‘simliklar olamini muhofaza qilish insoniyat uchun juda katta hayotiy ahamiyatga ega. Insonlar tabiatdan foydalanib, uning asrlar davomida tashkil topgan tabiiy manzarasini o’zgartirmoqda, unga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda. Sanoat tarmoqlari va qishloq xo’jaligining rivojlanib borishi va tabiiy maydonlarning keng miqyosida o’zlashtirilishi ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda. Natijada o‘simliklar dunyosidagi genefondning kamayishiga sabab bo’lmoqda. Har qanday turning yo’qolishi uni tiklab bo’lmaydigan oqibatlarga olib keladi.

Dorivor o‘simliklardan olinadigon moddalar hozirgi payitgacha suniy ravishda sintezlanmagan bo’lib, faqat tabiiy usulda o‘simliklardan ajratib olish mumkin. Bunday o‘simliklarning sonining kamayishi esa farmakalogiya homashyo bazasida kamchiliklarni keltirib chiqaradi. Insonlarning o‘simliklardan nato’g’ri foydalanishi natijasida esa bunday o‘simliklar tobora kamayib bormoqda. Qizil kitobning yangi nashrida 20 dan ortiq dorivor o‘simliklar turlari kiritilgan bo’lib, ularning hammasi ham tarkibi jihatdan juda foydali hisoblanadi. Ularning taribida efir moylari, alkaloidlar, karotinlar flavanoidlar, kumarinlar va bacha turdagি vitaminlar mavjud.

Kovrak-Ferula o’simligi ziradoshlar oilasiga mansub, ko’p yillik o’simlik. Yer yuzida bu o’simlikning 160dan ziyod turi tarqalgan. Bo’yi 1 metrga yetadigon, poyasi tik, yog’on, ichi kovak, yuqori qismi shoxlangan. Ildizoldi bargali bandli, 3 bo’lakli, poyadagilari maydarоq, poyada ketma-ket joylashgan. Gullari soyabon to’pgulda joylashgan. Kovrak monokarp o’simlik bo’lib, 7-8 yilda bir marotaba gullab, urug’ beradi. Kovrak ildizi tarkibida havoda qotib qoladigon asafetida va efir moylari saqlaydi. Asfetidaning tarkibidan ferfulat kislata, qatron

spirtlar, kumarinlar ajratib olingan. Efir moyidan esa sulfidlar, kumarin va boshqa moddalar borligi aniqlangan. Ildiz tarkibida kraxmal ham bor. Kovrak ildizidan olingen yelimdan asab sistemasi kasalliklarida o'pkadagi shamollahash astma, ko'k yo'tal, sil, zaxm kasalliklarida foydalaniladi. Kovrakdan tayyorlangan galen pereparatlari esa arterial bosimni pasaytiradi, kapillyar qon tomirlari mo'rtligini bartaraf etadi. Ildizidan tayyorlangan damlama har qanday og'riqni qoldirish xususiyatiga ega. Hozirgi kunda kovrakning ildizi bilan ayovsiz o'rib olinishi natijasida, kovrakning tabiiy tarqalgan xududlari keskin kamayib ketdi. Chunki kovrakning ildizi bilan sug'urib olingen joydan boshqa kovrak unib chiqmaydi bu esa, kovrak o'simligining soni kamayishiga yana bir sabab xisoblanadi.

Qizilcha o'simligining ruscha va maxalliy nomi (Xvoynik sredniy, qizil tomir va qizilcha) deb nomланади. Qizilcha qirq bug'um tərizli efedra (Ephedra equisetina) qirq bug'inlar oilasiga (Ephedraciae), efedra (Ephedra) turkumiga kiruvchi mangi yashil buta. Bo'yi 1-1,5 metrga yetadi. Barglari poyada qaramaqarshi yoki xalqa bo'lib joylashgan, ikki uqli o'simlik. U O'rta Osiyoning tog'li xududlarida usadi. Uning xomashyosi 0,6-3% alkaloidlarning yig'indisiga ega. Ularning 90% ni efedrin tashkil qiladi. Efedrin gidroxlorid tabletka turida (0,025 g) nafas yetishmasligi va gipertjniya kasalliklarida qo'llaniladi.

Qizilchalar xalq xujaligida muxim axamiyatga ega. Jumladan, Ye.equisetina, Ye.intermedia nomli turlardan tabobatda yurar xastaliklari va astmaga qarshi dorilar tayerланади.

Uni qanday qabul qilish kerak: Qizilcha faqat qisqa muddatli asosda ishlatilishi kerak, chunki uzoq muddat foydalanish giyohvandlikka olib kelishi mumkin. Havfsiz deb hisoblangan vaqt miqdori aniq emas. Qizilchadan foydalanish faqat tegishli tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassisning rahbarligi va nazorati ostida amalga oshirilishi kerak. Qizilchani ovqatlanmasdan, ovqatlanish oralig'ida istemol qilishi kerak. Qizilcha asabiylashish, bezovtalik, tashvish, uyqusizlik, bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi, quisish va siydik chiqarish muammolari kabi yon ta'sirlarni keltirib chiqarishi mumkin.



XULOSA: Qoraqalpog'istonda uchrovchi turli tabiiy hududlarda o'sadigan ayrim o'simlik turlari ham bir qancha sabablarga, omillarga (Antropogen, biotik, abiotic) ko'ra yo'qalish havfi, ostida qolmoqda. Ana shunday o'simlik, dorivor o'simlik turlarini saqlab qolish va ko'paytirish shu kunning dolzarb vazifasidan hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Eshmuratov R.A., Ajiev A.B. //QORAQALPOG'ISTON DORIVOR O'SIMLIKLARI// Toshkent "Tafakkur avlodi" 2020
2. Isaqov .T.T., Esonova I.U. //QIZIL KITOFGA KIRITILGAN DORIVOR O'SIMLIKLAR VA ULARNING TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI// <https://doi.org/10.5281/zenodo.7295168>
3. Ж.Уснатдинов., А.Ажиев. //ҚИЗИЛЧА (EPHEDRA DISTACHYA L.) ЎСИМЛИГИНИНГ ФАРМАКОЛОГИК ХУСУСИЯТИ// Научный импульс. Международный современный научно-практический журнал
4. <https://library.samdu.uz/download/2256>